

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Bo‘lim o‘z ish faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, institut Ustavi, hamda o‘z Ustavi asosida amalga oshiradi.

1.2. Bo‘limga rahbarlik institut direktori orqali bo‘lim boshlig‘iga berilgan huquqiy shartlar va majburiyatlar asosida amalga oshiriladi.

1.3. Bo‘limning rasmiy nomlanishi:

Davlat tilida – «Tosh va ilk metal davrlari arxeologiyasi» bo‘limi

Rus tilida – Otdel «Arxeologii epoxi kamnya i rannego metalla»

1.4. Joylashgan o‘rni: **O‘zbekiston Respublikasi, 140151. Samarqand shahri, V.Abdullaev ko‘chasi, 3 - uy.**

1.5. Bo‘limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1) O‘zbekistonning o‘rta asrlar davriga qadar ya’ni eng qadimgi davrlardan milodiy erani V asrigacha bo‘lgan moddiy va ma’naviy madaniyatini o‘rganish, tadqiq etilayotgan davrlar moddiy madaniyatining xronologiyasi va davrlashtirish masalalarini arxeologik kuzatuv va qazishmalar orqali ishlash;

2) O‘zbekiston hududida ibtidoiy davr jamiyatlaridagi dunyoqarashlar, dunyoviy dinlarning rivojlanishi, hunarmandchilik, metallsozlik va tog‘-kon ishlarini o‘rganish;

3) Arxeologik yodgorliklarni aniqlash, xaritaga tushirish va olingan ma’lumotlarni ilmiy muomalaga kiritish;

4) Arxeologiya fanining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish;

5) Bo‘lim ixtisosligi bo‘yicha jahon fani yutuqlarini o‘rganish va ulardan foydalanish, xalqaro miqyosda qo‘shma tadqiqotlar tashkil etish;

6) Yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlar tashkil etish shakllarini takomillashtirish;

7) bo‘lim o‘zi o‘tkazgan tadqiqotlarning yuqori sifatli bo‘lishiga va qimmatli natijalarga erishishga, ilmiy jamoaning ijodiy imkoniyatlarini amalda qo‘llash uchun sharoit yaratishga kafolat beradi;

1.6. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zR qonunlariga, O‘zR Prezidenti, O‘zR Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, O‘zR FA bo‘limlari va ilmiy Kengashlarining buyruqlariga amal qiladi.

2. BO‘LIMNING ILMIY VA ILMIY-TASHKILIY FAOLIYATI

2.1. Bo‘lim o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun:

1) tasdiqlangan rejaga muvofiq ravishda fundamental, amaliy, innovatsion, laboratoriya - eksperimental tadqiqotlar va loyihalarga binoan tajriba ishlari o‘tkazadi;

2) zaruratga qarab doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlar mavzularini yangilab boradi.

3) Ilmiy Kengash tomonidan qo'yilgan muammolarni hisobga olib, mamlakat va jahon fani yutuqlaridan foydalangan holda o'z ishlarini tashkil etadi;

4) ilmiy bilimlarni targ'ib qiladi, institut tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar va ularning natijalarini ma'lum qilib boradi;

2.2. mehnat to'g'risidagi qonunlarni, mehnatni muhofaza qilishning normalari va qoidalariga, texnika xavfsizligiga, yong'indan himoyalaniş, sanitariya ishlari, davlat ijtimoiy sug'urtasiga, mehnat intizomiga amal qiladi, mehnatni tashkil qilishni doimiy takomillashtirib boradi.

2.7. Bo'limlar tuzilmasi institut direktori tomonidan tasdiqlangan qoidalarga rioya qilgan holda ish yuritadi.

3. BO'LIMNING HUQUQ VA BURCHLARI

3.1. Bo'limga tegishli huquqlar direktor tomonidan amaldagi taqsimot asosida va institutning boshqa mansabdor shaxslariga yuklatilgan taqsimot bo'yicha mehnat jamoasi ishtiroki yoki u bilan kelishilgan holda amaldagi qonunlarga binoan amalga oshiriladi.

4. ILMIY BO'LIM, LABORATORIYA (SEKTOR) MUDIRI

4.1. Ilmiy bo'lim, laboratoriya (sektor) mudiri institutning Ilmiy Kengashi tavsiyasi bilan fan doktori ilmiy darajasi bo'lgan yetakchi ilmiy xodimlar orasidan, direktor tomonidan tayinlanadi.

4.2. O'zR FA ning akademiklari bo'lim yoki laboratoriya (sektor) mudirligiga tanlovlardan (konkurs, attestatsiya) mustasno tarzda tayinlanadilar.

8.3. Bo'lim, laboratoriya (sektor) mudiri:

- mazkur bo'limning barcha faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarining yo'nalishi va bajarilishida shaxsan qatnashgan holda izlanishlarning sifati va muddatlari uchun javob beradi;

-u rahbarlik qilayotgan bo‘limda xodimlarning joy-joyiga qo‘yishga, kadrlarni qayta tayyorlanishiga, mehnat intizomiga rioya qilishiga, mehnat va texnika xavfsizligi qo‘lalariga amal qilishga javob beradi:

- fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni tuzadi, ilmiy tadqiqot va ekspremental ishlarni amalga oshiradi;

- mavzular bo‘yicha xodimlarga rahbarlik qiladi, topshiriqlarni taqsimlaydi va bajarilishini ta’minlaydi, rejalarni bajarilganligi to‘g‘risida hisobotlar taqdim etadi;

- bo‘limning ilmiy tadqiqotlari natijalarini boshqa korxonalar, muassasa va tashkilotlar bilan birgalikda amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqarishda qatnashadi;

- bo‘lim miqyosida ilmiy seminarlar o‘tkazadi, axborot va patent –litsenziya ishlarini tashkil etad;

- xorijiy mamlakatlarda turdosh tadqiqotlarning rivojlanish holatini o‘rganadi, halqaro ilmiy hamkorlik bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi.

5. ILMIY XODIMLAR

5.1. Yetakchi ilmiy xodim alohida ilmiy muammolarga (mavzu, topshiriq) bag‘ishlangan tadqiqotlarga rahbarlik qiladi, tadqiqot guruhlarini boshqaradi yoki maxsus ilmiy dasturlar vazifalarini bajarishga mas’ul ijrochi bo‘ladi.

5.2. Katta ilmiy xodim bevosita mustaqil mavzular bo‘yicha tadqiqotlar olib borayotgan ilmiy xodimlar guruhiga, shuningdek, muayyan mavzuning bir qismini (bo‘lim, bosqich) bajarishga rahbarlik qiladi yoki ijrochi sifatida murakkab va mas’uliyatli ish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazadi.

5.3. Ilmiy xodim mavzuning alohida bir bo‘limi (bosqichi, vazifasi) ga mas’ul ijrochi sifatida ilmiy tadqiqot ishlarini bajaradi yoki ilmiy rahbar bilan birgalikda murakkab eksprement va kuzatuvlar olib boradi.

5.4. Kichik ilmiy xodim ma’sul ijrochi rahbarligida ilmiy tadqiqotlar olib boradi va mavzuning alohida bo‘limi (bosqichi, vazifasi) bo‘yicha tasdiqlangan uslubiyatlar asosida ilmiy ishlanmalarda qatnashadi.

5.5. Institut ilmiy xodimlari va mutaxasislari mualliflik va boshqa mulkiy huquqga ega sub’ekt hisoblanib, institutning ilmiy rejalari ularning shaxsiy, ijodiy qobiliyatlari tufayli bajariladi.

5.6. Bo‘limni tugatish yoki qayta tashkil etish amaldagi qonun talablari asosida amalga oshiriladi.

5.7. Bo‘lim institut namunaviy Ustavi asosida o‘zining Ustavini ishlab chiqadi va uni institut Ilmiy Kengashi taqdimnomasiga muvofiq Institut direktori tasdiqlaydi. Lozim bo‘lganda, institut Ilmiy Kengashi qarori bilan Ustavga tegishli o‘zgartishlar kiritiladi va ushbu o‘zgartirishlar ham Milliy markaz direktori tomonidan tasdiqlanadi.